

BOLALARNI ZO‘RAVONLIKNING TURLI SHAKLLARIDAN HIMOYA QILISH

Karimova Manzura To'xtaboyevna

Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani

2-sonli umumta'lim maktab psixologi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalarni zo‘ravonlikning turli shakllaridan himoya qilish masalasi, uning psixologik va ijtimoiy jihatlari hamda profilaktik choralar yoritilgan. Oila, maktab va jamiyatning bolalar xavfsizligini ta’minlashdagi o‘rni tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: bola huquqlari, zo‘ravonlik, psixologik himoya, jismoniy zo‘ravonlik, emotsional zo‘ravonlik, profilaktika, oila, maktab, xavfsizlik, ijtimoiy himoya.

KIRISH

Bolalarni zo‘ravonlikning turli shakllaridan himoya qilish bugungi kunda eng muhim ijtimoiy-psixologik vazifalardan biridir. Chunki bolalik davrida yuz beradigan har qanday salbiy tajriba bolaning ruhiy rivojlanishiga jiddiy zarar yetkazishi va uning kelajakdagi shaxs sifatida shakllanishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Zo‘ravonlik bir necha shakllarda namoyon bo‘ladi: jismoniy zo‘ravonlik, psixologik (emotsional) zo‘ravonlik, jinsiy zo‘ravonlik hamda e’tiborsizlik (neglect). Har bir shakl bolaning ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, unda qo‘rquv, xavotir, o‘ziga ishonchsizlik va ijtimoiy chekinish kabi holatlarni yuzaga keltiradi. Bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilishning muhim yo‘nalishlaridan biri oilada sog‘lom psixologik muhitni yaratishdir. Ota-onaning mehr-muhabbati, tushunishi va ijobiy tarbiya usullari bolaning xavfsizlik hissini mustahkamlaydi. Ta’lim muassasalarida ham bolalarni himoya qilish muhim vazifalardan biridir. O‘qituvchilar va maktab psixologlari bolalarning xulq-atvoridagi o‘zgarishlarni erta aniqlashi, ularga nisbatan har qanday tazyiq yoki kamsitish holatlariga tezkor chora ko‘rishi lozim.

Albert Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, bolalar kattalarning xatti-harakatlarini kuzatib o‘rganadi. Shu sababli kattalarning ijobiy namuna ko‘rsatishi zo‘ravonlikning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Bolalarni huquqiy jihatdan himoya qilish ham muhim ahamiyatga ega. Bolalar o‘z huquqlarini bilishi va zo‘ravonlik holatlarida kimga murojaat qilishni tushunishi kerak. Bu ularning o‘zini himoya qilish qobiliyatini oshiradi.

Shuningdek, psixologik profilaktika ishlari ham samarali vositadir. Treninglar, suhbatlar va psixologik maslahatlar bolalarda stressga chidamlilik va emotsional barqarorlikni shakllantiradi. Tengdoshlar muhitida ham ijobiy ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish muhimdir. Do‘stona muhit bolalarda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hissini

kuchaytiradi va zo‘ravonlik xavfini kamaytiradi.

Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi. O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi 2024 yil 14 noyabr, O‘RQ-996-sonli qonuni qabul qilingan unga muvofiq. Bolaning hayotiga, sog‘lig‘iga, jinsiy daxlsizligiga, sha‘niga, qadr-qimmatiga hamda qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari va erkinliklariga tajovuz qiladigan, jismoniy yoki ruhiy azob yetkazayotgan yoki yetkazishi mumkin bo‘lgan hamda asosiy ehtiyojlariga zid bo‘lgan, shu jumladan telekommunikatsiya tarmoqlaridan va Internet butunjahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda amalga oshiriladigan, qasddan sodir etiladigan harakat (harakatsizlik) bolalarga nisbatan zo‘ravonlik deb e‘tirof etiladi.

Jismoniy zo‘ravonlik, jinsiy zo‘ravonlik, ruhiy zo‘ravonlik, g‘amxo‘rlik ko‘rsatmaslik, ekspluatatsiya qilish va ta‘qib etish (bulling) bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning shakllaridir. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning barcha shakllari taqiqlanadi hamda qonun bilan ta‘qib qilinadi.

Bolalarga og‘irligi turli darajada bo‘lgan tan jarohatlari yetkazish, ularni xavf ostida qoldirish, hayoti va sog‘lig‘i uchun xavfli holatda bo‘lgan bolalarga yordam ko‘rsatmaslik hamda zo‘ravonlik xususiyatiga ega boshqa huquqbuzarliklarni sodir etish yoxud bolalarning hayoti, sog‘lig‘i yoki erkinligiga tajovuz qiladigan jismoniy ta‘sir o‘tkazish bolalarga nisbatan jismoniy zo‘ravonlik deb e‘tirof etiladi.

Bolaga nisbatan shahvoniy xususiyatga ega bo‘lgan harakatlarni sodir etish orqali uning jinsiy daxlsizligiga tajovuz qilish, shu jumladan nomusga tegish, jinsiy ehtiyojni zo‘rlik ishlatib g‘ayritabiiy usulda qondirish, jinsiy aloqa qilishga majburlash, o‘n olti yoshga to‘lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish, voyaga yetmagan shaxsni pornografik xususiyatga ega harakatlar ijrochisi sifatida jalb etish, voyaga yetmagan shaxsni jalb etgan holda qo‘shmachilik qilish, fohishaxonalar tashkil etish yoxud unga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar sodir etish, aldash yoki ishonchni suiiste‘mol qilish orqali yoxud bolaning ojizligidan foydalanib shahvoniy xususiyatga ega harakatlarni sodir etish, shahvoniy shilqimlik qilish, shuningdek qonunda taqiqlangan, shahvoniy xususiyatga ega bo‘lgan har qanday boshqa harakatlar bolalarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik deb e‘tirof etiladi.

Bolalarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha‘ni va qadrqimmatini kamsitish, ularni tahqirlash, shuningdek bolalarning asosiy ehtiyojlarini cheklashga qaratilgan boshqa harakatlarda ifodalangan zo‘ravonlik shakli, shu jumladan zo‘ravonlikdan jabrlanuvchida o‘z xavfsizligi uchun xavotir uyg‘otgan, o‘zini himoya qila olmaslikka olib kelgan yoki ruhiy sog‘lig‘iga zarar yetkazgan harakatlar (harakatsizlik) bolalarga nisbatan ruhiy zo‘ravonlik deb e‘tirof etiladi.

Boladan iqtisodiy, jinsiy va boshqa maqsadlarda foydalanish, shu jumladan odam savdosi, g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga va tilanchilik qilishga jalb etish, jinsiy ekspluatatsiya, shuningdek jismoniy yoki ruhiy ta‘sir ko‘rsatishni qo‘llagan holda

bolani majburlash orqali boladan nikohga kirish yoki er-xotin bo'lib yashash, muayyan diniy ta'lim olish, har qanday shakldagi mehnatga majburlash uchun foydalanish bolaning sog'lig'iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga, shu jumladan ta'lim olishiga tahdid tug'dirsa, bolalarni ekspluatatsiya qilish deb e'tirof etiladi.

Bir guruh bolalar yoki bitta bola tomonidan boshqa bolaga yoki bolalarga nisbatan haqoratli laqablardan foydalanish, u (ular) bilan har qanday muloqotni cheklab qo'yish (boykot qilish), uning (ularning) mol-mulkini olib qo'yish va (yoki) mol-mulkiga zarar yetkazish, uning (ularning) o'ziga xos jismoniy, psixologik yoki intellektual xususiyatlarini ommaviy muhokama qilish, uning (ularning) sha'ni va qadr-qimmatini kamsitish yoxud uning (ularning) sog'lig'i va hayotiga zarar yetkazish, shu jumladan telekommunikatsiya tarmoqlaridan va Internet butunjahon axborot tarmog'idan foydalangan holda amalga oshiriladigan, muttasil ruhiy va (yoki) jismoniy tajovuzkor ta'sir ko'rsatish ta'qib etish (bulling) deb e'tirof etiladi.

Bolaning to'laqonli rivojlanishi, uning jismoniy va ruhiy salomatligi uchun oziq-ovqat, uy-joy hamda boshqa zarur shart-sharoitlar bilan ta'minlanishi, xavfsizlik, ta'lim olish, katta yoshdagilarning g'amxo'rliqi, ijtimoiy aloqalar o'rnatish, hayotiy ko'nikmalari rivojlanishi va o'z imkoniyatlarini amalga oshirishi uchun shart-sharoitlar yaratilishini qamrab oladigan hayotiy muhim ehtiyojlar majmui bolaning asosiy ehtiyojlari deb e'tirof etiladi.

Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishning asosiy prinsiplari

Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

qonuniylik;

insonparvarlik;

bolaning eng ustun manfaatlarini ta'minlash;

bolalarning huquqlari va imkoniyatlari tengligini ta'minlash;

bolalarning tahqirlanishiga yo'l qo'ymaslik;

bolaning o'z manfaatlariga taalluqli qarorlar qabul qilinishida ishtirok etishi;

bolalarga nisbatan zo'ravonlikka bo'lgan murosasizlik;

bolalarga nisbatan zo'ravonlik uchun javobgarlikning muqarrarligi; zo'ravonlikdan jabrlanuvchining huquqlarini tiklash.

Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish sohasidagi davlat siyosati bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, uning asosiy yo'nalishlari bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish bo'yicha davlat dasturlari va strategiyalarni ishlab chiqish hamda ularni amalda bajarish, jamiyatda bolalarga nisbatan har qanday zo'ravonlikka nisbatan murosasiz munosabat muhitini shakllantirish, zo'ravonlikdan jabrlangan yoki xavf ostida bo'lgan

bolalarning huquqiy va ijtimoiy himoyasini kafolatlash, ularning hayoti, sogʻligʻi, shaʼni va qadr-qimmatini himoya qilish, jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni oshirish hamda qonuniylilikni mustahkamlash, zoʻravonlikning oldini olish va uni erta aniqlash uchun samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni yaratish, zoʻravonlikka olib keluvchi sabab va sharoitlarni bartaraf etish, ota-onalarning farzand tarbiyasidagi masʼuliyatini kuchaytirish, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari oʻrtasidagi hamkorlikni rivojlantirish hamda bolalarga nisbatan zoʻravonlikka oid maʼlumotlarni toʻplash, tahlil qilish va ulardan foydalanishdan iboratdir.

Bolalarni zoʻravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish tizimini amalga oshiruvchi subyektlar tarkibiga Vazirlar Mahkamasi, Bola huquqlari boʻyicha vakil (Bolalar ombudsmani), bolalar masalalari boʻyicha milliy komissiya, Prezident huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi, prokuratura va ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya, Oila va xotin-qizlar qoʻmitasi, Yoshlar ishlari agentligi, taʼlim va sogʻliqni saqlash tizimi organlari hamda muassasalari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari kiradi.

Ushbu subyektlar oʻzaro hamkorlikda axborot almashish, zoʻravonlik holatlarini aniqlash va baholash, jabrlangan bolalarga yordam koʻrsatish, profilaktik choralarni birgalikda amalga oshirish, idoralararo qarorlar qabul qilish, mutaxassislarini tayyorlash va malakasini oshirish, qonunchilik ijrosini monitoring qilish va uni takomillashtirish boʻyicha takliflar ishlab chiqish orqali faoliyat yuritadi.

Bolalarni himoya qilish boʻyicha yakka tartibdagi chora-tadbirlar tizimi ham mavjud boʻlib, u himoya orderi berish, psixologik, tibbiy, huquqiy va ijtimoiy yordam koʻrsatish, oilani qoʻllab-quvvatlash, zarurat tugʻilganda bolani xavfli muhitdan olib qoʻyish, zoʻravonlikdan jabrlangan yoki guvoh boʻlgan bolalarni protsessual himoya qilish, zoʻravonlik sodir etgan shaxslar uchun tuzatish dasturlarini joriy etish hamda ayrim huquqlarni cheklash choralari oʻz ichiga oladi. Bu choralarni qoʻllash uchun jabrlanuvchining yoki uning vakilining murojaati, fuqarolarning xabarlari, vakolatli organlar tomonidan aniqlangan holatlar, ommaviy axborot vositalari va internetdagi maʼlumotlar hamda davlat organlari tomonidan yuborilgan materiallar asos boʻlishi mumkin.

Zoʻravonlik xavfi ostida boʻlgan bolalar toifasiga yetim va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlganlar, ijtimoiy jihatdan xavfli yoki nazoratsiz sharoitda yashovchilar, nogironligi boʻlgan bolalar, ota-onasi ogʻir kasallik yoki huquqiy muammolar sababli tarbiya bera olmaydigan holatlardagi bolalar hamda jinoyat yoki huquqbuzarlik bilan bogʻliq xavf guruhidagi bolalar kiradi. Umuman olganda, bu tizimning asosiy maqsadi bolalarni har qanday zoʻravonlikdan himoya qilish, ularning xavfsiz muhitda ulgʻayishini taʼminlash va jamiyatda bolalar huquqlariga hurmat madaniyatini shakllantirishdan iboratdir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bolalarni zo‘ravonlikning turli shakllaridan himoya qilish kompleks yondashuvni talab qiladi. Oila, maktab va jamiyatning hamkorligi orqali bolalar uchun xavfsiz va sog‘lom psixologik muhit yaratish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // URL: <http://www.lex.uz>
2. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi // URL: <http://www.lex.uz>
3. O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonuni // URL: <http://www.lex.uz>
4. 2019 yil 2 sentabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi «Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida» Qonuni;
5. Astanov I. R. Zo‘rluk ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar va ularni tergov qilishning o‘ziga xos jihatlari: O‘quv qo‘llanma. –T., TDYuU, 2015. – B. 139.
6. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya: Darslik. Mas’ul muharrir: yu.f.d., prof. M.H.
7. Rustamboev. – T.: TDYuU nashriyoti, 2008. – B. 163.